

MILLIY AVIAKOMPANIYANI TRANSFORMATSIYA QILISH XALQARO ANDOZALAR ASOSIDA AMALGA OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyatini transformatsiya qilish va IPOga tayyorlash ishlarini jadallashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Soʻnggi yillarda davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni isloh qilish, ularda korporativ boshqaruv va hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish boʻyicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda Milliy investitsiya jamgʻarmasi faoliyatining yoʻlga qoʻyilgani va uning boshqaruvi “Franklin Templeton” kompaniyasi jalb etilgani muhim qadam boʻldi.

Oʻtgan oyda Milliy investitsiya jamgʻarmasi ilk bor xalqaro bozorda 690 million dollarlik aktivlarni joylashtirdi. Bu orqali Oʻzbekiston global kapital bozori qoidalari asosida ishlashga tayyor ekani haqida muhim signal berildi. Joylashtirish jarayonida talab taklifdan 4 barobar yuqori boʻlib, yirik investitorlar tomonidan qariyb 3 milliard dollarlik buyurtmalar berildi.

Endi jamgʻarma portfeliidagi 13 ta yirik kompaniyada transformatsiya jarayonlarini tezlashtirib, ularni IPOga tayyorlash vazifasi turibdi. Jumladan, “Uzbekistan Airways”, “Oʻzsanoatqurilishbank”, “Oʻzbekgidroenergo”, “Oʻzbekiston milliy elektr tarmoqlari” va “Oʻzbektelekom” boʻyicha ishlar shu yilning oʻzida yakunlanishi maqsad qilingan.

Taqdimotda “Uzbekistan Airways” AJ misolida

mazkur jarayonlarni tashkil etish masalalari koʻrib chiqildi.

“Franklin Templeton” vakillari tomonidan milliy aviakompaniyaning faoliyati diagnostikadan oʻtkazilib, 115 ta chora-tadbirdan iborat transformatsiya dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu dastur toʻliq amalga oshirilsa, kompaniyaning operatsion daromadlarini bir yilda 120 million dollarga oshirish imkonini borligi hisob-kitob qilingan.

Jumladan, marshrutlarni optimallashtirish, toʻgʻridan-toʻgʻri sotuvlarni oshirish va mijozlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, parvozlar orasidagi vaqtni qisqartirish, reyslarni bekor qilish holatlari va kechikishlarni kamaytirish, keytering va texnik xizmat koʻrsatish kabi tizim korxonalari samaradorligini oshirish, bozordagi vaziyatga tezkor moslashish va malakali mutaxassislarni jalb qilish hisobidan qoʻshimcha daromad olish mumkinligi qayd etildi.

Bu choralar natijasida aviakompaniyaning bozor qiymatini 1,6 milliard dollardan 2,3 milliard dollargacha oshirish imkonini mavjud. Shu bilan birga, dastur ishlab chiqilganiga bir necha oy boʻlganiga qaramay uni amalga oshirish ishlari

sust borayotgani koʻrsatib oʻtiladi.

Davlatimiz rahbari kompaniyani xalqaro kapital bozoriga tayyorlash uchun, avvalo, boshqaruv sifatini tubdan oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash, hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish va kredit reytingini yaxshilash zarurligini taʼkidladi.

Yil yakunigacha milliy aviakompaniyaning 15 – 20 foiz aksiyasini xalqaro IPO orqali sotish maqsad qilingan. Buning uchun kompaniya faoliyatini xolis baholash, uning investitsion jozibadorligini oshirish, maxsus havo kemalarini kompaniya balansidan chiqarish, davlat buyurtmasi asosida bajarilgan xizmatlarni qoplash mexanizmini joriy etish boʻyicha amaliy choralar koʻrilishi belgilandi.

Taqdimotda turizm sohasidagi yuqori oʻsish surʼatlari aviakompaniya oldiga yangi talablar qoʻyayotgani ham qayd etildi. Yil boshidan mamlakatimizga kelgan turistlar soni 27,5 foizga oshib, qariyb 5,5 million nafarga yetdi. Ayniqsa, Xitoy, Malayziya, Yaponiya va AQSHdan kelayotgan sayyohlar soni sezilarli koʻpaygan.

Ayni paytda milliy aviakompaniya bu oʻsishga yetarlicha tez moslasha olmayotgani koʻrsatib

oʻtiladi. Samolyotlar parkini kengaytirish ishlarida kechikishlar mavjud.

Shu bois aviakompaniyada xaridlar tizimini alohida tartib asosida tashkil etish, samolyotlar parkini kengaytirish boʻyicha qarorlarni tezkor qabul qilish va bu jarayonlarda xalqaro amaliyotni joriy etish vazifasi qoʻyildi.

Prezidentimiz Toshkentni Markaziy Osiyoning yirik aviaxabiga aylantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjudligini taʼkidladi. Buning uchun “Uzbekistan Airways”, “Uzbekistan Airports” va “Yangi Toshkent” aeroporti oʻrtasidagi hamkorlikni yagona tizim asosida muvofiqlashtirish, infratuzilma, yoʻnalishlar va tranzit tarmogʻini oʻzaro bogʻliq holda rivojlantirish zarurligi qayd etildi.

Mutasaddilarga Milliy investitsiya jamgʻarmasi portfeliidagi korxonalar transformatsiyasini tizimli tashkil etish uchun alohida loyiha ofisini ishga tushirish, kompaniyalar boshqaruv organlariga xalqaro moliya bozorlari talablarini yaxshi biladigan, amaliy tajribaga ega mutaxassislarni jalb qilish, har bir korxona boʻyicha IPOga tayyorgarlikning aniq grafiginu ishlab chiqish va ijrosini qatʼiy nazorat qilish topshirildi.

ALBANIYA PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN OʻZBEKISTONDA BOʻLADI

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay rafiqasi hamrohligida 16-17-iyun kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda boʻladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Toshkent shahrida boʻlib oʻtadigan oliy darajadagi muzokaralarda Oʻzbekiston va Albaniya oʻrtasidagi koʻp qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilinadi.

Savdo, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xoʻjaligi, “yashil” energetika va turizm kabi ustuvor yoʻnalishlarda ham fikr almashish rejalashtirilgan.

Tashrif dasturi doirasida Albaniya Prezidenti V Toshkent xalqaro investitsiya forumida ham ishtirok etadi.

OʻZBEKISTON VA ALBANIYA OʻZARO MANFAATLI SIYOSIY-IQTISODIY SHERIKLIKNING UZOQ MUDDATLI KUN TARTIBINI SHAKLLANTIRMOQDA

16-17-iyun kunlari Albaniya Prezidenti Bayram Begay Oʻzbekistonga rasmiy tashrif buyuradi va Toshkent xalqaro investitsiya forumida (TXIF) ishtirok etadi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston va Albaniya ikki tomonlama munosabatlarni faollashtirish hamda keng koʻlamli yoʻnalishlarda hamkorlikni kengaytirishga intilayotganini namoyon etmoqda. Geografik uzoqlikka qaramay tomonlar siyosiy muloqotni, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratmoqda.

GERMANIYA FEDERAL PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN OʻZBEKISTONGA KELADI

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer rafiqasi hamrohligida 17-18-iyun kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda boʻladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, ikki davlat rahbarlarining tor va kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari boʻlib oʻtadi. Oʻzbekiston – Germaniya koʻp qirrali munosabatlari yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi.

Tomonlar savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika va “yashil” texnologiyalar, transport va logistika, farmatsevtika va kimyo sanoati, qishloq xoʻjaligi sohalarida amaliy hamkorlikni kengaytirish, taʼlim va gumanitar almashinuvlarni faollashtirish

OʻZ.A.

MAMLAKATIMIZNING MUHIM MINERALLAR VA TEXNOLOGIK METALLAR ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATI KENGAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev sanoat uchun muhim minerallar xomashyo bazasini rivojlantirish hamda yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Dunyoda texnologik metallar va muhim minerallarga talab keskin oʻrtib bormoqda. Elektrotexnika, mashinasozlik, aviatsiya, energetika, tibbiyot va boshqa yuqori texnologiyali tarmoqlar uchun zarur boʻlgan bunday xomashyo va mahsulotlar iqtisodiy xavfsizlik hamda sanoat raqobatbardoshligining muhim omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimizda bu yoʻnalishda katta salohiyat bor. Lekin hozirgi vaqtda Oʻzbekiston texnologik metallar kombinatining asosiy faoliyati, asosan, volfram va molibden ishlab chiqarish bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, yangi konlarni oʻzlashtirish, boyitish fabrikalari, gidro va pirometallurgiya zavodlarini qurish orqali 28 turdagi muhim minerallarni sanoat darajasida ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Taqdimotda ushbu salohiyatni toʻliq ishga solish boʻyicha 2026 – 2030-yillarga moʻljallangan rejalor koʻrib chiqildi. Unga koʻra, umumiy qiymati 4,2 milliard dollarlik 120

ta loyihani amalga oshirish koʻzda tutilgan. Bu orqali tarmoq hajmini 2028-yilgacha 1 milliard dollarga, 2030-yilgacha 2 milliard dollarga yetkazish imkoniyati borligi qayd etildi.

Joriy yilning oʻzida 166 million dollarlik 12 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan. Natijada yuqori soʻflikdagi selen, tellur va reniy kabi 3 turdagi yangi metall, kukun metallurgiyasi asosida avtodetallar singari 21 turdagi import oʻrnini bosuvchi mahsulotlar hamda sulfat kislotalari ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyiladi. Shuningdek, yangi quvvatlar hisobidan yuzlab ish oʻrinlari yaratiladi, byudjet tushumlari va eksport imkoniyatlari ortadi.

Volfram va molibden boʻyicha “xomashyo – qayta ishlash – tayyor mahsulot” zanjirini tashkil etishga alohida eʼtibor qaratildi. Bu orqali faqat konsentrat yoki yarimtayyor mahsulot emas, balki yuqori qoʻshilgan qiymatga ega metall kukunlari, qotishmalar, sterjenlar, simlar, sanoat uchun detallar va boshqa tayyor

mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsad qilingan.

Buning uchun Chirchiq shahrida “Kelajak metallari” texnoparki va “R&D” markazining faoliyatini keng yoʻlga qoʻyish belgilangan. U yerda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, startap loyihalarni qoʻllab-quvvatlash, yuqori soʻflikdagi metallar va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur sharoit yaratiladi.

Prezidentimiz texnopark va uning rezidentlariga yer uchastkalari hamda infratuzilmadan foydalanish boʻyicha qoʻshimcha imtiyozlar berish, startap loyihalarni moliyalashtirish dasturini ishlab chiqish zarurligini taʼkidladi.

Markaziy Osiyoda muhim minerallar boʻyicha yagona ilmiy-tadqiqot va texnologik markazni shakllantirish masalasi ham koʻrib chiqildi. Chirchiq shahrida tashkil etilayotgan nanotahlil laboratoriyasi geologiya, konchilik va metallurgiya loyihalari uchun zamonaviy tahlil xizmatlarini koʻrsatadi. Laboratoriya

toʻliq ishga tushgach bir kunda 1 mingtagacha namuna tahlil qilinib, 6,5 million dollarlik import xizmatlari mahalliyashtiriladi, yana 4 million dollarlik xizmatlar eksporti yoʻlga qoʻyiladi.

Sohadagi loyihalarni tezlashtirish uchun geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish, istiqbolli maydonlar va konlarni xalqaro standartlar asosida baholash, texnogen chiqindilarni qayta ishlash, xorijiy investorlar va texnologik hamkorlarni faol jalb qilish muhimligi qayd etildi.

Shu bilan birga, tarmoqda raqamlashtirish va sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etish zarurligi taʼkidlandi. Geologik maʼlumotlarni yagona raqamli bazaga jamlash, qidiruv ishlarini “3D” modellashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida nazorat qilish, bozor tahlili va loyihalar boshqaruvinu zamonaviy platformalar orqali tashkil etish vazifalari belgilandi.

Soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasiga ham

eʼtibor qaratildi. Toshkent davlat texnika universiteti bilan dual taʼlim tizimi yoʻlga qoʻyilib, Texnologik metallar kombinatida metallurgiya va materialshunoslik boʻyicha 2 ta kafedra ochilgan. Ayni vaqtda universitetning 64 nafar talabasi ishlab chiqarish amaliyotini korxonada oʻtamoqda. Mutasaddilarga dual taʼlim qamrovini kengaytirish, oʻquv dasturlarini yangi loyihalar ehtiyojiga moslashtirish va bitiruvchilarni yuqori texnologik ishlab chiqarishlarga yoʻnaltirish boʻyicha koʻrsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari muhim minerallar sohasi yangi sanoat tarmoqlarini shakllantirish, eksportni koʻpaytirish, texnologik mustaqillikni taʼminlash va yuqori malakali ish oʻrinlari yaratishda katta ahamiyatga ega ekanini taʼkidladi.

Mutasaddilarga 2026 – 2030-yillarga moʻljallangan loyihalar ijrosini qatʼiy nazorat qilish boʻyicha topshiriqlar berildi.

OʻZ.A.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oʻn oltinchi yalpi majlisi toʻgʻrisida AXBOROT



13-iyun kuni Toshkent shahrida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oʻn oltinchi yalpi majlisi boʻlib oʻtdi.

Unda Senat, hukumat aʼzolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti aʼzolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida oʻtkazilgan yalpi majlisni

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning “YouTube” tarmogʻidagi sahifasi orqali toʻgʻridan-toʻgʻri yoritib borildi.

Oliy Majlis Senatining oʻn oltinchi yalpi majlisi “Sud hokimiyati

organlari faoliyatini moliyalashtirish toʻgʻrisida”gi qonunni muhokama qilishdan boshlandi.

Taʼkidlanganidek, ushbu qonunning asosiy maqsadi sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda sudlarning Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan toʻliq va mustaqil ravishda faoliyat yuritishini taʼminlashdan iborat.



Muhokama

AYOLLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZOʻRAVONLIK HOLATLARINING OLDINI OLISH – USTUVOR VAZIFA

Kecha Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari boʻyicha respublika komissiyasining majlisi boʻlib oʻtdi. Uni Oliy Majlis Senati Raisi, mazkur komissiya raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Tadbirda respublika komissiyasi aʼzolari, davlat va jamoat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari, shuningdek, hududlardan onlayn tarzda masʼul rahbarlar ishtirok etdi.

Majlisda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zoʻravonlik holatlarining oldini olish, jabrlanuvchilarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish hamda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi muhokama markazida boʻldi.

Taʼkidlanganidek, mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlarini taʼminlash va ularni har qanday tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-martdagi “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga

nisbatan tazyiq va zoʻravonlik holatlarining oldini olish boʻyicha qoʻshimcha tashkiliy-huquqiy choralar toʻgʻrisida”gi Farmoni himoya mexanizmlarini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, sohada hal etilishi lozim boʻlgan qator tizimli muammolar saqlanib qolayotgani aytiladi. Xususan, zoʻravonlik sodir etgan shaxslar bilan ishlash boʻyicha tuzatish dasturlari amaliyotida belgilangan tartiblar toʻliq ishlamayotgani, profilaktika inspektorlari tomonidan individual rejalor ishlab chiqilmayotgani va ijrosi nazorat qilinmayotgani tanqid qilindi. Ayni chogʻda axborot tizimlari oʻrtasida integratsiya yetarli emasligi, ayniqsa, “E-order” va “E-tuzatish dasturi” platformalari faoliyatidagi texnik muammolar xizmat koʻrsatish samaradorligiga salbiy taʼsir koʻrsatayotgani qayd etildi.



OʻZBEKISTON VA TURKIYA OʻRTASIDAGI ABADIY DOʻSTLIK TIMSOLI

Oʻzbekiston va Turkiya davlat rahbarlari tashabbuslari bilan soʻnggi yillarda ikki mamlakat oʻrtasidagi doʻstlik, qardoshlik aloqalari mustahkamlanmoqda.

Qardoshlik

Maʼlumki, 2023-yil fevral oyida Turkiyaning Hatay viloyatida roʻy bergan zilzila oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Oʻzbekiston birinchilardan boʻlib Turkiyaga yordam qoʻlini choʻzgan edi. Davlatimiz rahbarining topshirigʻiga koʻra Hatay viloyatining Arsuz tumanida 306 xonadondan iborat 24 ta qoʻp qavatli uy-joy qurib berildi.

Prezidentimiz shu yil yanvar oyida Turkiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrif davomida yangi xonadonlar egalariga topshirilgan edi. Hozir bu xonadonlarda yashayotgan oilalarning nafaqat bagʻri butun, balki ular ogʻir va sinovli kunlarda qardosh oʻzbek xalqining, uning yetakchisi tomonidan koʻrsatilgan yordamni cheksiz minnatdorlik bilan eʼtirof etmoqda.

Joriy yilning 13-14-iyun kunlari Hatay viloyatida qad rostlagan Oʻzbekiston mahallasidagi qurilish majmualariga xalqlarimiz oʻrtasidagi abadiy doʻstlik timsollariga uygʻun ravishda nom berish tadbirlari boʻlib oʻtdi.

Mazkur tadbirida Oʻzbekiston delegatsiyasi ishtirok etdi. Unda, shuningdek, Turkiya Buyuk millat majlisi Raisi N. Kurtulmush boshchiligidagi deputatlar, Hatay viloyati hamda Arsuz tumani

rahbariyati va boshqa qator rasmiy vakillar ham qatnashdi. Taʼkidlanganidek, Hatay zaminida bunyod etilgan goʻzal maskanlarga “Shavkat Mirziyoyev bulvari”, “Oʻzbekiston mahallasi”, “Toshkent” va “Samarqand” koʻchalari, “Oʻzbekiston Respublikasi birodarlilik bogʻi” kabi nomlar berilishi va “Buxoro jome masjidi”ning faoliyat yuritishi oʻzbek xalqiga koʻrsatilgan yuksak hurmat namunasidir.

Soʻzga chiqqanlar Oʻzbekiston Prezidenti tashabbusi bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamdagi islohotlarni alohida eʼtirof etib, ayniqsa, qardosh xalqlar bilan hamkorlik mustahkamlanib borayotganini taʼkidladi.

Tadbir davomida Oʻzbekiston delegatsiyasi aʼzolari ushbu majmualar bilan ham tanishdi. Shuningdek, ertalabdan boshlangan sayillarda mahalliy aholi oʻzbek milliy konsert dasturlari va oʻzbekistonlik mohir oshpazlar tomonidan tayyorlangan milliy taomlardan bahramand boʻldi. Oʻzbekiston tarixi va madaniyatiga bagʻishlangan fotosuratlar hamda oʻzbek milliy hunarmandchilik asarlari koʻrgazmalari Hatay aholisida katta taassurot qoldirdi.

“Xalq soʻzi”.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n oltinchi yalpi majlisi to‘g‘risida

AXBOROT

Hujjat bilan sudlarni moliyalashtirish faqat Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi va byudjet loyihasini tayyorlashda sudlarning mustaqil ishtiroki qat’iy belgilab qo’yilmoqda.

Endilikda Byudjet kodeksida mamlakatda iqtisodiy vaziyat yoki byudjet taqchilligi ortishidan qat’i nazar, sudlar faoliyati uchun ajratiladigan mablag‘larni qisqartirish taqiqlanmoqda. Shuningdek, navbatdagi yil uchun ajratiladigan mablag‘lar hajmi o‘tgan yildagidan kam bo‘lmasiligi kafolatlanmoqda.

Yangi tartibga ko‘ra Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Sudyalari oliy kengashi ajratilgan mablag‘larni o‘zlar mustaqil ravishda tasarruf etadi, quyi sudlar tizimi bo‘yicha esa buni Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti amalga oshiradi.

Bundan tashqari, “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilgan o‘zgartirishga muvofiq endilikda har bir sud alohida bino, qo‘riqlash tizimi va avtotransport bilan ta’minlanadi.

Senatorlarning fikricha, mazkur qonunning hayotga tatbiq etilishi sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlashga, sudyalarning va sud apparati xodimlarining moddiy va ijtimoiy ta’minotini yaxshilashga hamda yurtimizda odil sudlov sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma’qulladi.

Yalpi majlisda “Aholini shovqinning zarari ta’siridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun ham ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, sanoat korxonalari soni oshishi, keng ko‘lamli qurilishlar, shaharlarning kengayib borishi, transport vositalarining ko‘payishi kabi omillar tufayli aholining maishiy hayotida shovqinning salbiy ta’siri ortib bormoqda.

Amalda esa aholi salomatligi va osoyishtaligiga, normal dam olishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi zarari shovqinlarga qarshi kurashish masalalarini kompleks tartibga soluvchi yagona huquqiy hujjat mavjud emas.

Shovqinning zararli ta’siri me’yorlarini nazarda tutuvchi 7 ta sanitariya norma va qoida amal qilsa-da, qonunchilikda bu borada qat’iy talablar belgilanmagan. Natijada ushbu sanitariya norma va qoidalariga so‘zsiz rioya etilishi ta’minlanmayapti.

Bundan tashqari, qonunchilikda inson salomatligi uchun zarar keltiruvchi va ruxsat etilgan darajadan yuqori bo‘lgan shovqinlarni keltirib chiqarayotgan obyektlarni javobgarlikka tortish masalalari to‘liq va aniq belgilanmagan.

Shuningdek, davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslarning zarari shovqinga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo‘yicha vazifa va funksiyalari hamda javobgarligini aniq belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ushbu qonun bilan aholini shovqinning zarari ta’siridan himoya qilishning umumiy qoidalari, davlat organlarining ushbu sohadagi vakolatlari, aholini shovqinning zarari ta’siridan himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlari aniq belgilanmoqda.

Shuningdek, fuqarolarning osoyishtaligi va normal dam olishini buzishga yo‘l qo‘ylmaydigan vaqtlar oraliqi, shovqinning zarari ta’siri uchun kompensatsiya to‘lovlariga oid normalar nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, jismoniy va yuridik shaxslarning aholini shovqinning zarari ta’siridan himoya qilish borasidagi huquqlari va majburiyatlari belgilanmoqda.

So‘zga chiqqanlar qonunning qabul qilinishi aholini shovqinning zarari ta’siridan himoya qilish munosabatlarini tartibga solishga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tdi.

Senatorlar ushbu qonunni ma’qulladi.

Yalpi majlisda “Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, mazkur Konstitutsiyaviy qonun mamlakatimizda investitsiyaviy muhitni yanada yaxshilash, xalqaro kapitalni jalb qilish hamda zamonaviy moliya infratuzilmasini shakllantirish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qonunda Toshkent xalqaro moliya markazining huquqiy maqomi, uning faoliyatini tartibga soluvchi asosiy prinsiplar, boshqaruv tizimi, vakolatlari, shuningdek, institutsional tuzilmasi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, Moliya markazi hududida investorlar uchun huquqiy barqarorlik va ishonchli sud himoyasini ta’minlashga qaratilgan normalar ham qonunda o‘z aksini topgan.

Senatorlar Moliya markazi ishtirokchilari uchun yaratilayotgan imkoniyatlarga ham alohida to‘xtalib o‘tdi. Jumladan, ushbu markaz ishtirokchilari va ularning xodimlariga xorijiy valyutada hisob-kitob qilish, chet ellik mutaxassislarni ishga qabul qilish va vizalar olishda soddalashtirilgan maxsus tartiblar belgilanishi ko‘zda tutilgan.

Muhokama davomida qonunning ayrim normalarini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Xususan, Toshkent xalqaro tijorat sudi sudyalarga qo‘yilayotgan talablarni qayta ko‘rib chiqish, Toshkent xalqaro tijorat sudining har qanday xalqaro arbitrajga oid ishini, ma’muriy-huquqiy nizolarni ko‘rish hamda Konstitutsiya va qonunlarga sharh berish vakolatlarini aniqlashtirish kabi masalalarni qayta ko‘rib chiqish lozimligiga e’tibor qaratildi.

Senatorlar fikricha, mazkur takliflarni inobatga olgan holda ushbu qonun ustida yanada puxta ishlash investorlar huquqlarining ishonchli himoyasini ta’minlash hamda Toshkent xalqaro moliya markazining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Qizg‘in muhokama natijasida Konstitutsiyaviy qonunni takomillashtirish bo‘yicha takliflar bilan Qonunchilik palatasiga yuborish, senatorlar va Qonunchilik palatasi deputatlaridan iborat kelishuv komissiyasini tuzish hamda manfaatdor davlat organlari va tashkilotlar vakillarini jalb qilgan holda uni qayta ishlash maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi.

Muhokama yakunida Senatning ushbu Konstitutsiyaviy qonunni takomillashtirish yuzasidan qarori qabul qilindi.

Shuningdek, yalpi majlis davomida “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, mamlakatimizda sud hokimiyati mustaqilligini ta’minlash va fuqarolarning odil sudlovga ishonchini oshirish



borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq tahlillarga ko‘ra hamon sudlar faoliyatiga tashqaridan aralashish holatlari kuzatilmoqda.

Yangi Konstitutsiyaviy normalarni hayotga tatbiq etish maqsadida ishlab chiqilgan mazkur qonun bilan 2 ta kodeksga o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Jumladan, Jinoyat kodeksiga kiritilayotgan o‘zgartirishlar bilan sud ishlarini hal etishga aralashganlik uchun jinoyi javobgarlik choralari aniqlashtirilmoqda. Shuningdek, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda sud binosida tartibni buzish va sudga hurmatsizlik qilish bilan bog‘liq harakatlar uchun ma’muriy javobgarlik choralari belgilanmoqda.

Mazkur qonun avvalroq Senat tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan ayrim masalalar mavjudligi sababli Qonunchilik palatasiga qaytarilgan edi. Kelishuv komissiyasi doirasida ushbu e’tirozlar ko‘rib chiqilib, Qonun takomiliga yetkazildi. Qonunda faqat eng dolzarb masala – sud mustaqilligini ta’minlovchi moddalar qoldirildi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi sudyalarning daxlsizligini ta’minlash, ularning faoliyatiga har qanday noqonuniy aralashuvlarning oldini olish va odil sudlov sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Senatorlar qonunni ma’qulladi.

Shundan so‘ng “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘v qilish va ovchilik xo‘jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda o‘v qilish va ovchilar tayyorlash tartibini tizimlashtirish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish, ovchilik xo‘jaliklarida bioxilmaxillikni ko‘paytirish va undan oqilona foydalanish borasida keng ko‘lamli ishlr amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ovchilik xo‘jaliklarini tashkil etish uchun yer uchastkalari ajratish, o‘v qilishni faqat belgilangan joylarda amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, ovchilikka taalluqli hujjatlarni berish jarayonlarini raqamlashtirish zarurati yuzaga kelmog‘da.

Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Qurol to‘g‘risida”gi hamda “Ov qilish va ovchilik xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, “Ov qilish va ovchilik xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunda ovchilik guvohnomasi davlat xizmatlari orqali, ovchilik yo‘llanmasi esa maxsus elektron dastur orqali berilishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, ovchilik xo‘jaliklarini tashkil etish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlardan hamda o‘rmon fondi yerlaridan 10 gektargacha yer ovchilik bazalari uchun hamda 100 gektargacha yer pitomniklar barpo etish uchun investitsiyaviy hamda shartnomaviy majburiyatlar belgilangan holda elektron onlayn-auksion orqali ijaraga berilishi nazarda tutilmoqda.

Eng muhimi, agar 2 yil muddat ichida yovvoyi hayvonlarni yetishtirish va takror ko‘paytirish bo‘yicha pitomniklar infratuzilmasi yoki takror ko‘paytirish uchastkasi tashkil

etilmasa, ijara shartnomasi bekor qilinishi belgilanmoqda.

Bundan tashqari, ovchilik guvohnomalari va yo‘llanmalarini berishga, yovvoyi hayvonlarni tutishga doir kvotalarni belgilash hamda taqsimlashning ilmiy asoslangan tartibini mustahkamlash nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, qonun o‘v qilishni faqat ovchilik xo‘jaliklariga birlashtirilgan joylarda, shuningdek, erkin o‘v qilish joylarida amalga oshirishni belgilashga, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlarda hamda o‘rmon fondi yerlarida ovchilik xo‘jaliklarini tashkil etish uchun yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali ijara huquqi asosida ajratishni tartibga solishga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Muhokama jarayonida ta’kidlanganidek, qonunning qabul qilinishi ovchilik sohasida yagona va shaffof huquqiy mexanizmlarni yaratishga, sohada nazoratni kuchaytirishga, yovvoyi hayvonlar resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlashga hamda ovchilik xo‘jaliklarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Senatorlar qonunni ma’qulladi.



Oliy Majlis Senatining yalpi majlisida “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga, korruptsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun ham muhokama qilindi.

Qonunning asosiy maqsadi jinoyat qonunchiligida mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish, korruptsiyaviy jinoyatlar uchun jazo choralarining qat’iyligini ta’minlash hamda xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishdan iborat.

Ushbu qonun bilan Jinoyat kodeksiga konseptual va prinsipial o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Jumladan, kodeksning sakkizinchi bo‘limiga “korruptsiyaga oid jinoyatlar” degan yangi atama va ularning aniq to‘xyati kiritilib, terminologik chalkashliklarga barham berildi. Bundan tashqari, pora olish, pora berish va bu jarayonda vositachilik qilganlik uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish institutini qo‘llash taqiqlanmoqda.

Shuningdek, sud amaliyotidagi ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etilgan firibgarlik belgisi Jinoyat kodeksining 168-moddasi to‘rtinchi qismiga (o‘ta og‘ir jinoyatlar toifasiga) o‘tkazildi va ushbu qilmish uchun 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, xususiy va nodavlat sektorida korruptsiyaning oldini olish maqsadida nodavlat tashkiloti xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish jinoyati uchun javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda. Jinoyat kodeksining qator moddalarida qilmishning “g‘irazgo‘ylik niyatlarida” sodir etilishi jazoni og‘irlashtiruvchi yangi kvalifikatsiya belgisi sifatida belgilanmoqda.

Davlat boshqaruvi tizimida funksiyalar takrorlanishining oldini olish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirish kiritildi va korruptsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens-nazorat) tizimi joriy qilinishi ustidan nazorat qilish vazifasi bekor qilindi. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda esa davlat xaridlari va byudjet tizimidagi qonunbuzilishlar uchun sanksiyalar kuchaytirildi.

Senatorlarning fikricha, mazkur qonunning hayotga tatbiq etilishi jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni mustahkamlashga hamda jinoyatlar uchun jazoning muqarrarligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Senatorlar qonunni ma’qulladi.

Yalpi majlis davomida ipakchilikni rivojlantirish, pillani yetishtirish va qayta ishlash samaradorligini oshirish, ozuqa bazasini yaxshilash hamda ushbu sohaning eksport salohiyatini mustahkamlash yuzasidan Hukumatga parlament so‘rovini yuborish masalasi ham ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda bu borada qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ipak qurti ozuqa bazasini mustahkamlash, pilla yetishtirish va qayta ishlash hajmini oshirish orqali 470 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Fermer xo‘jaliklari dala chetlari, ariq-zovur

bo‘ylari va o‘rmon xo‘jaligi yerlarida 29,2 million tup yakka qator tut ko‘chatlari ekilgan. Joriy yilda 30,1 ming tonna pilla yetishtirish hamda eksport hajmini 120 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, yalpi majlisda 54 ming gektar tuzlorning 15 ming gektaridan ortig‘i eskirgani, pilla parvarishlashda ilmiy asoslangan innovatsion texnologiyalar yetarli darajada joriy qilinmagani, mahsulot yetishtiruvchilarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalar yetishmasligi, qurt boqish xonalari sanitariya talablariga javob bermasligi, oziqlantirish va saqlash ishlari to‘g‘ri tashkil etilmagani natijasida hosildorlik pastligicha qolayotgani kabi kamchiliklar tanqid qilindi.

Bundan tashqari, sohada ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarnmalarini joriy qilish samarali tashkil etilmagani, mahalliy urug‘lar ulushi pastligi natijasida urug‘larni import qilish ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Qo‘shilgan qiyamat zanjiri ham to‘liq shakllanmagan. Buning natijasida mamlakatimizda yetishtirilayotgan pillaning atigi 30 foizi chuqur qayta ishlanmoqda.

Muhokama yakunida ipakchilikni rivojlantirishning ushbu dolzarb masalalari yuzasidan Senatning Hukumatga parlament so‘rovini yuborish to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi.

Shuningdek, Senatning 16-yalpi majlisida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yildagi faoliyati yuzasidan hisoboti eshittildi.

Markaziy bank 2025-yildagi faoliyatida asosiy e’tiborni bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini maqbullashtirish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarning salbiy ta’sirlarini yumshatish va banklar bardoshligini oshirish, bank xizmatlari va hisob-kitob operatsiyalariga kibertahdidlar va firibgarliklarning oldini olish maqsadlariga qaratgan. Bundan tashqari, aholining jamg‘arish faolligini rag‘batlantirish hamda o‘rta muddatli istiqbolida inflyatsiyaning belgilangan target ko‘rsatkichiga yetishini ta’minlash maqsadlari ham nazarda tutilgan.

Shuningdek, pul-kredit siyosati operatsion mexanizmini takomillashtirish, uning transmission kanalini yaxshilash, bank tizimi likvidligini samarali boshqarish va pul bozorida foiz stavkalarining bozor mexanizmlari asosida shakllanishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Buning natijasida yil yakuni bo‘yicha inflyatsiya darajasi 2024-yildagi 9,8 foizdan 7,3 foizgacha, bazaviy inflyatsiya esa mos ravishda 7,3 foizdan 5,7 foizgacha pasaygan. Bu esa iqtisodiyotdagi inflyatsion jarayonlar barqarorlashayotganini ko‘rsatgan.

Yil yakuniga ko‘ra yalpi xalqaro zaxiralar hajmi 1,6 baravar ko‘payib, 66,3 milliard dollarni tashkil etgan. Xalqaro zaxiralarni boshqarishda Markaziy bankning qimmatli qog‘ozlar portfeli qiymati 1,5 milliard dollarga yetgan. Yil davomida aholi va tadbirkorlik subyektlariga 330 trillon so‘mlik kredit mablag‘lari ajratilgan.

Muammoni kreditlar ulushi kredit portfeli 3 foizgacha pasaygan. Muammoni kreditlarning zaxiralar bilan qoplanish darajasi 87 foizdan 94 foizgacha oshdi. Bu esa yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar uchun yetarli mablag‘ mavjudligini ko‘rsatadi.

E’tibori jihat, ushbu jarayonda banklarning moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlariga ham, portfel sifatiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, kapital yetarligi ko‘rsatkichi 18,3 foiz, likvidlikni qoplash me’yori 208 foiz, sof barqaror moliyalashtirish me’yori 120 foiz darajasida shakllangan.

To‘lov tizimlarining barqarorligi va infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirishli naqd pulsiz to‘lovlarini kengaytirishga va to‘lov tizimlariga tahdid solayotgan kiberhujumlar va firibgarlik holatlarining oldini olishga ko‘maklashadi.

Yalpi majlisda senatorlar tomonidan to‘lov xizmatlari borasida tijorat banklari, to‘lov tashkilotlari va to‘lov tizimi operatorlari faoliyatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda bank va to‘lov tizimlarida kibexavfsizlikni ta’minlash, moliyaviy xizmatlar sohasida firibgarlikka qarshi kurashish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Muhokamadan so‘ng Senatning ushbu takliflarni inobatga olgan tegishli qarori qabul qilindi.

Yalpi majlisda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi masala ham ko‘rib chiqildi.

Oliy Majlis Senatining qaroriga muvofiq yuzasidan qabul qilingan qatorga asosla Akmaljon Aljonov, Difuza Dadadjanova, Difuza Jurayeva, O‘tkir Razikov, Sardor Raxmudinov, Muxiddin Sultonov, Jahongir Turdimuradov, Luiza Xalitova, Abdusaid Xojiyev va Marat Ergashev o‘n yillik muddatga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi lavozimiga saylandi.

Yalpi majlisda jamiyat hayotining barcha sohalar huquqiy asoslarini mustahkamlashga va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samaradorligini oshirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 9 ta masala, jumladan, 6 ta qonun ko‘rib chiqildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n oltinchi yalpi majlisi yakunlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot xizmati.

Xalq soʻzi

2026-yil 16-iyun

Munosabat

ASOSIY MEZON — XALQCHILLIK

Oliy Majlis Senatining 16-yalpi majlisi kun tartibidan qator qonunlar muhokamasi, parlament so‘rovi jo‘natish, respublika miqyosidagi tashkilotlarning hisobotini eshitish kabi masalalar o‘rin oldi. Navbatdagi yalpi yig‘ilishda ko‘rib chiqilgan sudlarning moliyaviy mustaqilligi, sudga xalqati qilganlik uchun jazo choralarining kuchaytirilishi, korruptsiyaga qarshi kurash va aholi osudaligini saqlashni nazarda tutuvchi qonunlar shular jumlasidan. Ularning ahamiyati xususida senatorlar fikr bildirdi.

Abdulkhamid ESHMURATOV, Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi:

– Ma’lumki, sudlarning chinakam mustaqilligi ularning moliyaviy jihatdan ijro etuvchi hokimiyat tizimiga qay darajada qaram emasligi bilan bevosita bog‘liq. Sud tizimining moliyaviy masalalari umumiy emas, balki alohida qonun darajasida kafolatlanishi esa sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va tizimda korruptsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qiluvchi muhim omildir.

Yalpi majlis muhokamasiga kiritilgan “Sud hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonun sud hokimiyatining ijro etuvchi hokimiyat organlaridan to‘liq moliyaviy mustaqilligini ta’minlash, odil sudlovni amalga oshirish uchun yetarli va barqaror resurslar bazasini yaratishning mustahkam qonuniy poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Qonunning 4-moddasida sudlar faoliyatini moliyalashtirishning yagona va shartsiz manbasi sifatida faqat O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti belgilanmoqda.

Anvar TO‘YCHIYEV, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi:

– Mamlakatimizda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilmaxillikni saqlash va ekologik muvozanatni ta’minlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayni chog‘da hayvonot va o‘simlik olami vakillarini asrab-avaylash, ularning noyob turlarini saqlash va ko‘paytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq shunga qaramay bugungi kunda ekologik vaziyatni yaxshilash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish holati tahlili sohada ayrim muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Jumladan, ov resurslaridan foydalanishda yagona va shaffof hisob-kitob tizimi to‘liq shakllanmagan. Aksariyat holatlarda ov xo‘jaliklari tomonidan ov qilish bo‘yicha shartnomalar qonun talablariga zid ravishda tuzilgan. Birorta ov xo‘jaligi tomonidan texnik-iqtisodiy asosnoma ishlab chiqilmagan. Ayrim hududlarda noqonuniy ov qilish bilan bog‘liq holatlar ortib bormoqda. Shuningdek, ov xo‘jaliklarining ov qilish joylarini berish bo‘yicha tuzilgan shartnomalarning amal qilish muddatlari tugagan bo‘lsa-da, noqonuniy ravishda ovchilik bilan shug‘ullanishi, hayvonlarni ovlashga noqonuniy ruxsatnomalarni sotish holatlari uchrab turibdi.

O‘rganish natijalariga ko‘ra, ov xo‘jaliklarining moddiy-texnika bazasi ham yetarli darajada

Sayyora ABDIKARIMOVA, Oliy Majlis Senati a’zosi:

– Urbanizatsiya, sanoatlashuv va transport vositalari sonining keskin ortishi natijasida inson hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ekologik omillardan biri – bu shovqin.

Shovqin darajasining belgilangan me’yorlardan oshishi, ayniqsa, maktablar va bolalar bog‘chalari atrofiga sodir etilayotgan yuqori shovqin holatlari bolalar ta’lim sifatini sezilarli darajada yomonlashtirishi aniqlangan.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, shovqin inson salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi ekologik xavf omillaridan biri hisoblanadi. Uning zarari Alsgeyer kasalligi, ya’ni xotiraning pasayishi va shaxs ruhiyatining o‘zgarishiga olib keladigan bosh miya kasalligiga hamda karlikka sabab bo‘lmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, bunday kasallik dunyo bo‘yicha 360 mln. odamda aniqlangan. Shuningdek, shovqin tufayli yurak-qon tomir kasalliklari kelib chiqishi va asab tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, doimiy shovqin sharoitida insonning ish qobiliyati 10 foizdan 30 foizgacha pasayishi aniqlangan.

Bugungi kunda qonunchilikda bu boradagi ayrim huquqiy bo‘shliqlar, aholi salomatligi va osoyishtaligiga, ularning normal dam olishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi zarari shovqinlarga

Mazkur norma sud hokimiyatini moliyalashtirish jarayonidagi ikkilamchi yondashuvga chek qo‘ygan holda tizimning byudjet mablag‘larini tasarruf etuvchi mustaqil subyekt sifatidagi maqomini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Qonunning eng muhim va kafolatlovchi jihatlaridan biri, bu – sudlarni moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlariga oid qoidalar. Xususan, Davlat byudjeti loyihasini ishlab chiqishda sudyalr va sud apparati xodimlarining ish haqi, rag‘batlantiruvchi to‘lovlar, sudlarning moddiy-texnik ta’minoti hamda sudyalr va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari qat’iy inobatga olinishi shart.

E’tiborlisi, sudlar faoliyatini ta’minlashga ajratiladigan mablag‘lar hajmi qoida tariqasida, o‘tgan moliya yildagidan kam bo‘lmasiligi belgilangan. Bundan tashqari, Davlat byudjeti daromadlari prognozi ijrosi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, sud tizimi xarajatlarni kamaytirish taqiqlanmoqda.

rivojlanmagan, hayvonot dunyosi monitoringi va kadastrini yuritish tizimi to‘liq raqamlashtirilmagan. Bu esa, o‘z navbatida, bioxilmaxillikka salbiy ta’sir ko‘rsatish bilan birga sohaning iqtisodiy salohiyatidan to‘liq foydalanish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Taklif etilayotgan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘v qilish va ovchilik xo‘jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan qator qonunlarga ovchilik guvohnomalari va yo‘llanmalarini berish tartibini takomillashtirish, yovvoyi hayvonlarni tutishga doir kvotalarni belgilash hamda taqsimlashning ilmiy asoslangan tartibini mustahkamlash, o‘v qilishni faqat ovchilik xo‘jaliklariga birlashtirilgan joylarda, shuningdek, erkin o‘v qilish joylarida amalga oshirishni belgilash hamda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlarda hamda o‘rmon fondi yerlarida ovchilik xo‘jaliklarini tashkil etishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.

Qonunning qabul qilinishi ov va ovchilar tayyorlash tartibini tizimlashtirish va takomillashtirish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish, ovchilik xo‘jaliklarida bioxilmaxillikni ko‘paytirish, ov turizmi infratuzilmasini rivojlantirish orqali mahalliy aholini ish bilan ta’minlash uchun imkoniyatlar yaratib berishga xizmat qiladi.

qarshi kurashish masalalarini kompleks tartibga soluvchi yagona huquqiy hujjat mavjud emasligi mazkur sohadagi huquqiy tartibga solinishning tizimligiga ta’sir qilmoqda. Jumladan, shovqinning zarari ta’siri me’yorlarini nazarda tutuvchi 7 ta sanitariya norma va qoida amal qilsa-da, qonunchilikda bu borada qat’iy talablar belgilanmagan. Natijada ushbu sanitariya norma va qoidalariga to‘la rioya etilmayapti.

Bundan tashqari, qonunchilikda inson salomatligi uchun zarar keltiruvchi va ruxsat etilgan darajadan yuqori bo‘lgan shovqinlarni keltirib chiqarayotgan obyektlarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish masalalari ham aniq ko‘rsatilgan. Natijada mas’ullarga zarari shovqin holatlarini tartibga solishda qator qiyinchiliklar yuzaga kelib, aholi orasida mazkur holatlar yuzasidan turli shikoyatlar soni ortib bormoqda.

Shundan kelib chiqib, “Aholini shovqinning zarari ta’siridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun bilan aholini shovqinning zarari ta’siridan himoya qilishning umumiy qoidalari, chora-tadbirlari, sohani davlat tomonidan tartibga solish, davlat organlarining vakolatlari belgilanmoqda.

“Xalq so‘zi”.

AYOLLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIK HOLATLARINING OLDINI OLISH — USTUVOR VAZIFA



Shu munosabat bilan axborot tizimlarini takomillashtirish, tezkor ma'lumotlar almashinuvini yo'g'a qo'yish va Milliy statistika qo'mitasining yagona ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish vazifalari belgilandi.

Ma'lum bo'lishicha, zo'ravonlik sodir qilgan shaxslarning aksariyatini ishsizlar tashkil etadi. Mas'ul vazirlik va idoralarning e'tibori mazkur toifadagi shaxslarni aniqlash, ularni kasb-hunarga o'qitish va bandlik dasturlariga jalb qilish bo'yicha idoralararo hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirishga qaratildi.

Majlisda jabrlanuvchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qilish masalasi ham muhokama etildi. Oilaviy-maishiy zo'ravonlikka oid ishlar bo'yicha jabrlanuvchilarning malakali huquqiy yordam, jumladan, advokat xizmatlaridan

foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligiga urg'u berildi.

Shuningdek, malakali psixolog kadrlar yetishmasligi, reabilitatsiya markazlaridagi ayollarning farzandlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlariga o'z vaqtida joylashtirish va birlamchi yordam ko'rsatish xonalari faoliyatidagi tashkiliy masalalar ham e'tibor markazida bo'ldi.

Psixologiya ta'lim yo'nalishlarini amaliyot talablari asosida takomillashtirish, oilaviy zo'ravonlik holatlari bilan ishlashga ixtisoslashgan mutaxassislar tayyorlash hamda reabilitatsiya xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

Majlis yakunida yuqorida qayd etilgan tizimli masalalarni hal qilishni o'z ichiga olgan respublika komissiyasi qarori va tegishli "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

MAHALLIY KENGASHLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGI OSHIRILADI

Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari doimiy komissiyalari a'zolari 15-16-iyun kunlari Senat qo'mitalari faoliyati bilan tanishadi, 15 – 19-iyun kunlari esa Navoiy va Buxoro viloyatlari mahalliy Kengashlari kotibiyati xodimlari Hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazida amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etadi.

Hamkorlik

Amaliyot davomida qatnashchilar Senat qo'mitalari hamda markaz faoliyati bilan yaqindan tanishib, mahalliy Kengashlar faoliyati samaradorligini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir dolzarb masalalarni hal etishda mahalliy vakillik organlarining

ishtirokini kengaytirish yuzasidan muhokamalar o'tkazmoqda.

Tadbirlarda mahalliy Kengash deputatlarini qonun ijodkorligi jarayoniga keng jalb etish, ularning taklif va mulohazalarini qonunchilikda inobatga olish, shuningdek, qabul qilinayotgan qonunlarda hududlarning o'ziga xos xususiyatlari va mavjud imkoniyatlarini aks ettirish

masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga qo'maklashuvchi komissiya raisi Anvar Ta'ochiyev ishtirokida o'tkazilgan uchrashuvda mahalliy Kengashlar va doimiy komissiyalar faoliyatini yanada takomillashtirish, Senat qo'mitalari hamda mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan parlament va deputatlik nazorati samaradorligini oshirishning dolzarb vazifalari muhokama qilindi.

“Xalq soʻzi”.

DOLZARB QONUN LOYIHALARI — DEPUTATLAR MUHOKAMASIDA

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqe'larga e'tibor qaratildi, shuningdek, quyilgan navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalarini ko'rib chiqildi.

Fraksiyalar hayoti

Iste'molchilar huquqi himoyasi kuchaytirilmoqda

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida yaroqlilik muddati o'tgan va yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan holda tovarlarni realizatsiya qilish hamda sotishning oldini olishga qaratilgan qonun loyihasi obdan muhokama etildi.

Aytilganidek, amalda yaroqlilik muddati o'tgan, ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatilishi shartligi belgilangan tovarlarni ularning ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddatini ko'rsatmagan holda realizatsiyasi bilan shug'ullanilgan va sotishga qabul qilganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Ushbu qonun loyihasi esa iste'molchilar huquqlari himoyasini kuchaytirish, tovarlarning yaroqlilik muddatiga oid talablarga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan.

Hujjat bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 178-moddasiga tegishli o'zgartirishlar kiritilmoqda. Xususan, yaroqlilik muddati o'tgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatilishi shartligi belgilangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan holda realizatsiyasi bilan shug'ullanilgan va sotish maqsadida qabul qilganlik uchun ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha jarimalar miqdorini oshirish nazarda tutilyapti.

Muhokama davomida deputatlar ayrim savdo do'konlarida inson salomatligiga xavf tug'diruvchi mahsulotlarni sotish holatlarini bildirib, mazkur hujjat aholi salomatligini muhofaza qilish, savdo madaniyatini oshirish va iste'molchilar huquqlarining ishonchli himoyasida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Deputatlar O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasini ko'rib chiqdi. – Yurtimizda suvdan oqilona foydalanish va suv resurslarini samarali boshqarish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda, –

deydi fraksiya a'zosi Baxitbay Aldamuratov. – Mazkur hujjat sohaga xususiy sektorni keng jalb qilish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali qishloq xo'jaligi hamda suv ta'minoti tizimi samaradorligini ko'tarishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shu sababli qonun loyihasining dolzarbligini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatladik.



Inson hayoti – oliy qadriyat “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida yaroqlilik muddati o'tgan va yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan holda realizatsiya qilish hamda sotishning oldini olishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi. So'nggi yillarda mamlakatimizda iste'molchilar huquqlari himoyasi bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ayrim savdo do'konlarida ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan oziq-ovqat mahsulotlarini sotish holatlari ko'paymoqda. Natijada iste'molchilarning bu boradagi e'tirozlari ham ortib boryapti.

Jumladan, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga 2024-yilda 547 ta, 2025-yilda esa 560 ta murojaat kelib tushgan. Ular bo'yicha 2024-yilda 79 ta, 2025-yilda esa 80 dan ortiq ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, sudlarga yuborilgan.

Qonun tashabbuskorlarining qayd etishicha, inson salomatligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi bunday holatlarning ko'payishiga ma'muriy huquqbuzarlik uchun belgilangan jarimalar miqdori kamligi sabab bo'lmoqda. Shu bois ushbu qonun loyihasi bilan bunday huquqbuzarliklar uchun javobgarlik yanada kuchaytirilmoqda.

Yig'ilishda bu masala fonofond bilan bog'liq ekan ta'kidlandi. Fraksiya a'zolari partiyaning saylovoldi dasturida millat genofondini saqlash masalasida bir qator vazifalar belgilanganidan kelib chiqib, qonun loyihasini qo'llab-quvvatladi.

Fraksiya a'zosi Davron Aripov ushbu masala inson hayoti bilan bog'liq ekanini qayd etib, qonunchilikka bu boradagi talablarni buzganlik uchun javobgarlik yuzasidan o'z takliflarini berdi.

Yig'ilishda kun tartibidagi barcha masalalar ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Sud jarayonlarida advokatning roli va ta'siri oshiriladi

O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida “ O' z b e k i s t o n Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga q o' s h i m c h a v a o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasining muhokamasi qizg'in kechdi. Ushbu qonun loyihasi bilan Jinoyat-protsessual kodeksi va “Advokatura to'g'risida”gi qonunga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilyapti. Loyihaga ko'ra, jinoyat ishi sudga faqat ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan emas, balki himoyachining fikri bilan birga kiritilishi belgilanmoqda.

Hujjat bilan himoyachiga dastlabki tergov yoki surishtiruv yakunlanganidan keyin besh sutka ichida “himoya fikri”ni taqdim qilish huquqi berilishi nazarda tutilmoqda. Himoya fikrida ayblovga munosabat, dalillar, jazoni yengillashtiruvchi holatlar, sudga chaqirilishi so'ralayotgan shaxslar va boshqa fikrlar aks ettirilishi mumkin.

M u h o k a m a davomida fraksiya a'zolari Behzod To'xtamurodov, Zuhridin Mavlonov va boshqalar qonun loyihasining ahamiyati yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirib, undagi ayrim normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlariga aniqlashtiruvchi savollar berdi. Shuningdek, qator takliflar ham bildirildi.

– Mazkur qonun loyihasi sud-huquq tizimida tomonlarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsipini yanada kuchaytirish, advokatlarning protsessual imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan, – deydi fraksiya a'zosi Zuhridin Mavlonov. – Shu sababli yig'ilishda partiyamiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, loyihani yanada takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarimizni

berdik. Qonun loyihasining qabul qilinishi natijasida sud jarayonlarida tortishuv prinsipi mustahkamlanadi, advokatning roli va ta'siri ortadi.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Ijtimoiy muhofazaga oid muhim kafolatlar

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab, sud-huquq tizimida tomonlarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsipini yanada kuchaytirish, advokatlarning protsessual imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi bilan jinoyat ishi sudga faqat ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan emas, balki himoyachining fikri bilan birga kiritilishi nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasida belgilanayotgan normalar fraksiya a'zolarining qizg'in muhokamasiga sabab bo'ldi. Xususan, deputat Jamol Achilov qonun loyihasini ishlab chiqishda xorijiy tajribaning o'rganilgani, himoya fikrining qay holatlarda inobatga olinishi yoki rad etilishi kabi savollarga mas'ullardan izoh so'radi.

Fraksiya a'zosi Dilbar Mamajonova esa mazkur loyiha bilan “Advokatura to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga kiritilayotgan o'zgartirishga e'tibor qaratib, taklif etilayotgan norma amalda qanday qo'llanilishi batafsil ochiqilmaganini aytdi.

Deputatlarning savollariga mas'ullar tomonidan atroflicha javob berildi. Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

Muhokama markazidagi navbatdagi masala – harbiy xizmatchilarning maqomi



va ularni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Unda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim kafolatlar nazarda tutilmoqda. Xususan, harbiy xizmatchilarning moddiy rag'batli, sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, uy-joy bilan ta'minlash, majburiy davlat sug'urtasi va pensiya ta'minoti, shuningdek, xizmat vazifasini bajarish

O‘ZBEKISTON VA ALBANIYA O‘ZARO MANFAATLI SIYOSIY-IQTISODIY SHERIKLIKNING UZOQ MUDDATLI KUN TARTIBINI SHAKLLANTIRMOQDA



O'zbekiston va Albaniya o'rtasida diplomatik munosabatlar 1993-yil 23-noyabrda o'rnatilgan. Hozirgi vaqtda rasmiy aloqalar O'zbekistonning Venadagi va Albaniyaning Moskvadagi elchixonalari orqali amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi siyosiy aloqalar sezilarli darajada faollashdi. 2025-yil 23-sentabr kuni Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi doirasida O'zbekiston Prezidentining Albaniya Prezidenti Bayram Begay bilan o'tkazgan muzokaralari ikki tomonlama munosabatlar rivojida muhim bosqich bo'ldi.

Uchrashuvda siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Siyosiy muloqot va iqtisodiy hamkorlikning barqaror mexanizmlarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Muzokaralar yakunida tomonlar O'zbekiston – Albaniya munosabatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishdan o'zaro manfaatdor ekanini ta'kidladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston – Albaniya aloqalarining rivojlanishi ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning faollashuvi bilan birga kechmoqda.

2024-yil 24-sentabr kuni Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 79-sessiyasi doirasida O'zbekiston tashqi ishlar vazirining Albaniya Yevropa va tashqi ishlar vaziri Igli Hasani bilan uchrashuvi bu boradagi muhim qadam bo'ldi. Muzokaralar yakunida diplomatik pasport egalari uchun vizasiz rejim to'g'risidagi hukumatlararo bitim imzolandi va bu ikki tomonlama

munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy bazasini takomillashtirishga salmoqli hissa qo'shdi.

O'zbekiston tashqi siyosat idorasi rahbarining 2025-yil 25-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasi doirasida Albaniyaning Yevropa va tashqi ishlar vaziri Elisa Spiropali bilan o'tkazgan uchrashuvidan so'ng hamkorlik yanada rivojlandi. Muzokaralar chog'ida ikki mamlakat Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida muntazam siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazishni va idoralararo aloqalarni yanada mustahkamlashni nazarda tutuvchi Hamkorlik to'g'risidagi bayonnomasini imzolandi.

Mazkur hujjatlarning imzolinishi ikki tomonlama sheriklikning qo'shimcha institutsional mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qildi. Erishtirilgan kelishuvlarning amaliy natijasi o'laroq shu yil 30-aprelda Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida O'zbekiston – Albaniya siyosiy maslahatlashuvlarining birinchi davrasi o'tkazildi.

Onlayn formatda o'tgan maslahatlashuvlar ikki davlat o'rtasida muntazam siyosiy muloqotni yo'g'a qo'yishda muhim bosqich bo'ldi. Bunday mexanizmining yaratilishi ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish va o'zaro manfaatli masalalar bo'yicha yondashuvlarni muvofiqlashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston – Albaniya munosabatlarini tarkibida siyosiy muloqot bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy hamkorlik muhim o'rin tutadi, biroq u hozirgi kunda mavjud salohiyatga mos kelmaydi.

O'zaro savdo hajmi nisbatan kamligiga qaramay O'zbekiston va

Albaniya hamkorlikni kengaytirishning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, investitsiya sohasida birgalikda ish olib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, Albaniya Prezidenti Bayram Begayning V Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi ishtiroki ikki mamlakat ishbilarmon doiralari uchun o'zaro manfaatli aloqalarni kuchaytirish zarurligi to'g'risidagi muhim ishora bo'ldi.

Tomonlarning fikricha, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berishni ko'paytirish, xizmat ko'rsatish sohasida hamkorlikni kengaytirish, ikki mamlakat ishbilarmon doiralari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash o'zaro sheriklikning istiqbolli yo'nalishlari bo'lishi mumkin. Madaniy-gumanitar almashinuvni yanada rivojlantirish va xalqaro maydonlarda hamkorlikni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

Siyosiy muloqotning izchil faollashuvi, shartnomaviy-huquqiy bazaning takomillashuvi va muntazam idoralararo maslahatlashuvlar mexanizmlarining ishga tushirilishi ikki tomonlama munosabatlarni yanada chuqurlashtirish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston va Albaniya teng huquqlilik, o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishdan o'zaro manfaatdor ekanini namoyon etmoqda.

Ikki tomonlama muloqotning izchil rivojlanishi mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga va turli sohalarida amaliy hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochishga xizmat qilishi kutilmoqda.

“Dunyo” AA.

YANGILIKLAR

Qo‘shariq — gastronomik turizm maskani



Andijon shahridagi Qo'shariq mahallasi hududida kechayu kunduz, ya'ni 7/24 tartibda xizmat ko'rsatadigan zamonaviy, barcha qulaylikka ega gastronomik turizm ko'chasi barpo etildi. Ushbu maskan shahar aholisi va mehmonlarining maroqli hordiq chiqarishi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Unda 50 dan ziyod savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, muzqaymoq hamda salqin ichimliklar do'konlari, xushmanzara joylar mavjud.

– Bu Andijon shahridagi ikkinchi gastronomik ko'cha hisoblanadi, – deydi Oliy Majlis Senati a'zosi, “Nuroni” jam'armasi Andijon viloyati bo'limi rahbari O'ktamjon Oxunov. – Hududda yaratilgan zamonaviy infratuzilma, ko'rkam sayilgoh, xizmat ko'rsatish obyektlari, savdo do'konlari yangi gastronomik ko'chani nafaqat andijonliklar, balki shaharga keluvchi sayyohlar uchun ham qulay va jozibador manzila aylantirdi.

Darhaqiqat, gastronomik turizm ko'chasi xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur loyiha shaharning zamonaviy qiyofasini boyitish va turizm salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Saminjon HUSANOV
 (“Xalq soʻzi”).

Dunyo bahodirlarini jam qilgan anjuman



Xiva shahrida Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan VI xalqaro “Strongmen” bahodirlar o'yinlari yakuniga yetdi. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi va Xorazm viloyati hokimligi hamkorligida tashkil qilingan ushbu musobaqalarda dunyoning 17 davlatidan 30 dan ziyod bahodirlar ishtirok etdi.

Qatnashchilar Xiva ustunlarini ma'lum masofaga ko'tarib borish, turli og'irlikdagi Xorazm cho'g'irmalarini balandlikka otish, Mo'ynoq langarini sudrash kabi qiziqarli shartlar bo'yicha o'z mahoratini namoyish qildi.

Yakuniy natijaga ko'ra, hamyurtimiz Muhammadali To'xtamatrov 1-o'rinni, Yangi Zelandiya vakili Tiano Dean Russel 2-o'rinni, litvalik Jokuzus Vilius 3-o'rinni egalladi. Musobaqaning g'olib va sovrindorlari pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Odilbek ODAMBOYEV
 (“Xalq soʻzi”).

Anjuman

INVESTITSIYA – IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISHNING MUHIM OMILI

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, kapital bozorini rivojlantirish Yangi O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu bois bugungi kunda investitsiya muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar keng ko'lam kasb etib, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalari kun sayin kengaymoqda.



P o y t a x t i m i z d a “O'zsanootqurilishbank” (SQB) tashkil etgan “Xalqaro kapitalni jalb qilish va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda SQB tajribasi” mavzuidagi matbuot anjumanida shu haqida so'z yuritildi.

Ta'kidlanganidek, banking transformatsiya jarayonlari xalqaro moliya bozorlaridagi pozitsiyalarni mustahkamlash, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Buning isbotini banking asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari ko'tarilib borayotganida ham ko'rish mumkin.

Bank aktivlari hajmi 102 trln. so'm, kapitali 12 trln. so'm, depozit bazasi 31,5 trln. so'm, shundan aholi omonatlari hajmi 10,5 trln. so'mni tashkil etdi. 2025-yil yakuniga ko'ra, sof foyda 1,9 trln. so'm bo'lib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha tijorat banklari orasida yetakchi o'rinni egalladi. Iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sohasiga 26,7 trln. so'm miqdorida kredit ajratilib, 120 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratildi.

Xalqaro kapitalni jalb qilish nafaqat banklar, balki butun iqtisodiyot rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zlashtirilayotgan mablag'lar yangi ishlab chiqarish quvvatlari, zamonaviy infratuzilmalar, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, bir so'z bilan aytganda, tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bank mutasaddirlarining aytishicha, SQB o'zini xalqaro kapital bozorlarida ishonchli va professional moliya instituti sifatida tanitdi. 2025-yil davomida xalqaro moliya instituti va xorijiy banklardan jami 932,3 mln. dollarlik resurs jalb qilingani buning yorqin isbotidir. E'tiborlisi, ularning asosiy qismi Yevropa va arab davlatlari, AQSH, Yaqin Sharq mamlakatlari hamda Buyuk Britaniya ulushiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, o'tgan yili beshta yangi moliya tashkiloti bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, ular ishtirokida iqtisodiyot tarmoqlariga 160 mln. dollar miqdorida mablag'lar yo'naltirildi.

Bank xorijiy yetakchi moliya institutlari, eksport-kredit agentliklari va kapital bozori resurslarini qamrab olgan diversifikatsiyalangan moliyalashtirish portfelini shakllantirdi, – deydi bank boshqaruvi raisi o'rinbosari Abdurashid Hakimov. – Bu uzoq muddatli va barqaror resurs bazasini yaratish imkonini bermogda. Jalb qilingan mablag'lar hisobidan korporativ, o'rta, kichik va mikrobiznes segmentlarida 1400 ga yaqin loyihalar moliyalashtirildi. “Rubicon Wireless Communication” korxonasi moliyalashtirish hamda “Toshshahartransxizmat” AJ uchun 200 ta katta sig'imli elektrobus va quvvatlash uskunalarini xaridi ana shunday yirik loyihalar sirasiga kiradi. Ular mamlakatning raqamli va transport infratuzilmasini yangi darajaga ko'tarishga xizmat qiladi, albatta.

Anjumanda so'zga chiqqan Moliya institutlari va investorlar bilan ishlash departamenti direktori o'rinbosari Akbarxon Ibrohimov aytganidek,

chet ellik investorlar sarmoya yo'naltirishdan oldin mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va bank tizimi ishonchligiga e'tibor qaratadi. Bugungi kunda bank dunyoning ko'plab yetakchi moliya muassasalari, jumladan, “JP Morgan”, “Citibank” va “Deutsche Bank” kabilar bilan ish olib borayotgani, shuningdek, Xitoy, Janubiy Koreya moliya muassasalari bilan hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilayotgani O'zbekiston iqtisodiyotiga yuqori ishonch natijasidir.

SQB 2024-yil iyulda London fond birjasida 580 mln. dollar ekvivalentidagi yevroobligatsiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirdi. Qimmatli qog'ozlarni jahonning 69 ta yirik fondi va investitsiya kompaniyasi xarid qildi, ularning 55 foizi AQSH investorlari hissasiga to'g'ri keldi. 2025-yil oktabrda esa bank London fond birjasida 300 mln. dollarlik birinchi darajali qo'shimcha kapital – “AT1” obligatsiyalarini muomalaga chiqardi. Investorlar talabi emissiya hajmidan to'rt barobar ziyod bo'ldi. Ushbu bitim “GlobalCapital” nashriining “Central and Eastern Europe Deal of the Year” mukofoti bilan e'tirof etildi.

SQBning jahon moliya bozorlaridagi faoliyati va moliyaviy ko'rsatkichlari xalqaro reyting agentliklari tomonidan ham ijobiy baholalanapti. Xususan, “Fitch Ratings” bank reytingini “BB-” darajasidan “BB” (barqaror) darajaga ko'tardi. “Moody's” agentligi esa bankning “Ba3” (ijobiy prognoz) reytingini tasdiqladi.

Anjuman davomida tashkilotning kelgusidagi rejalari borasida ham batafsil ma'lumot berilib, birgina 2026-yilda 1,2 mlrd. dollardan ziyod xorijiy resurslar jalb qilinishi rejalashtirilgani aytiladi. Joriy yilning 1-iyun holatiga ko'ra, 313 mln. dollarlik kredit liniyalari bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Ushbu mablag'lar hisobiga 530 dan ortiq loyihalar moliyaviy qo'llab-quvvatlandi.

Shu yil may oyida Milliy investitsiya jamg'armasi aksiyalari IPO orqali London va Toshkent fond birjalarda ommaviy savdoga chiqarildi. Jamg'arma aktivlari tarkibiga SQBning 40 foizlik ulushi kiritilishi esa bankni xususiy lashtirishga tayyorlash va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim qadam sifatida baholandi.

Ommaviy axborot vositalari xodimlarining banking kelgusidagi strategik rejalarda aholi farovonligi uchun qanday qulayliklar ko'zda tutilgani, bank faoliyatida raqamlashtirish va Sining roli, kibernetiklik hamda jalb qilingan investitsiyalarni o'z o'rniga yo'naltirishdagi amaliy qiyinchiliklarga doir savollarga mas'ulalar tomonidan batafsil javob berildi.

Kelgusida ham bank xalqaro kapital bozorlaridagi ishtirokini kengaytirish, investorlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, resurs manbalarini diversifikatsiya qilish hamda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyalashtirish bo'yicha ishlarni faol davom ettirishi alohida ta'kidlandi.

G'olib BAHROMOV (“Xalq so'zi”).

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi jamoasi korxonada uzoq yillar samarali faoliyat ko'rsatgan mehnat faxriysi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Qutbiddin MANSUROVning

vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik izhor etadi.

TOSHKENT – SARMOYADORLAR UCHUN ENG ISHONCHLI MANZIL

Global geosiyosiy va makroiqtisodiy murakkabliklar davrida kapitalni xavfsiz saqlash, barqaror bozorlarni kashf etish hamda ishonchli sheriklar topish xalqaro investorlar uchun eng ustuvor vazifaga aylandi. Mana shunday vaziyatda Markaziy Osiyoning iqtisodiy drayveri – O'zbekiston navbatdagi yirik siyosiy-iqtisodiy tadbirga mezbonlik qilmoqda.

Nuqtai nazar

Poytaxtimizda beshinchi marotaba o'tkazilayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumining asosiy mavzusi “Investitsiyaviy barqarorlik: yangi marralar, yangi sheriklik” deb nomlandi. Ishtirokchilar global inqirozlar sharoitida kapitalni qanday himoya qilish, qaysi institutsional mexanizmlar rivojlanayotgan bozorlarda investitsiya barqarorligini ta'minlashi va yangi hamkorlik yo'nalishlarini qayerdan izlash kerakligi kabi eng dolzarb savollarga javob izlaydi.

Joriy yilda jahon iqtisodiyoti ta'minot zanjirlarining parchalanishi, proteksionizm va bojxona to'siqlarining kuchayishi hamda geoiktisodiy noaniqlik sharoitida rivojlanmoqda. Aynan shu bois yirik kapital egalari uchun yuqori daromad bilan birga barqarorlik hamda huquqiy himoya birinchi o'rinda chiqdi. Forum shiori ushbu global talabga bevosita javobdir. Qayd etish joizki, bu yilgi forumga yuzdan ortiq mamlakatlardan 3 400 nafardan ziyod xorijiy vakillar, jami 8 300 dan ortiq ishtirokchilar ro'yxatdan o'tgan. Bu – forum tarixidagi eng katta ko'rsatkich.

Bu yilgi forum chin ma'noda muzokaralar maydoni bo'ladi. Negaki, O'zbekiston iqtisodiyotida erishilayotgan tarixiy hamda misli ko'rimagan makroiqtisodiy natijalar bu yo'nalishdagi aloqalarni yanada kengaytirishi shubhasiz.

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda davlatimiz rahbari boshchiligidagi amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar o'z samarasini bermogda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 7,7 foiz o'sib, 147 mlrd. dollardan oshdi. Bu 2021-yildan buyon eng yuqori ko'rsatkich bo'lib, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng tez o'sish sur'atlaridan biri degani. “Fitch Ratings” hamda “S&P Global” xalqaro reyting agentliklari mamlakatning suveren kredit reytingini ilk bor “VV-”dan “VV” darajasiga ko'tardi. “Moody's” agentligi esa O'zbekiston istiqbolini “ijobiy” deb qayta baholadi.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizning xalqaro oltin-valyuta zaxiralari ilk bor 77 mlrd. dollardan oshib ketdi. Bu har qanday tashqi shoklardan himoya qila oluvchi mustahkam poydevordir. Yurtimiz eksporti 24 foiz o'sib, 33,8 mlrd. dollarni tashkil etdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi esa bir yilda 46,9 foizga oshdi va umumiy kapital qo'yilmalarning 40,5 foizini tashkil etdi.

O'zbekiston investitsiyaviy jozibadorligining haqiqiy qamrovini anglash uchun yaqin o'timishga nazar solish kifoya. 2017-yilda O'zbekistonga jalb qilingan yillik xorijiy investitsiyalar hajmi bor-yo'g'i 4 mlrd. dollarni tashkil etardi. Oradan sakkiz yil o'tib, 2025-yil yakunlariga ko'ra bu ko'rsatkich 42 mlrd. dollarga yetdi. Sakkiz yil ichida investitsiya oqimining o'n barobarga ko'payishi jahon iqtisodiyoti tarixida kamdankam uchraydigan fenomenal ko'rsatkichdir. Mazkur raqamlar mamlakatimizning tashqi dunyo uchun yopiq, qamr bozordan qonun ustuvorligi hamda investor huquqlari himoyalangan ochiq va ishonchli iqtisodiy makonga aylanganini isbotlaydi.



chiqish diqqat markazida bo'ladi. Ikkinchidan, raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt yo'nalishlariga ahamiyat qaratish orqali jahon texnologiya bozori yetakchilarini O'zbekistonning IT-xabga aylanish strategiyasiga jalb qilish masalasi ham kun tartibidan o'rin olgan.

Uchinchidan, Markaziy Osiyoni Janubiy Osiyo hamda Yevropa bilan bog'laydigan yangi tranzit yo'nalishlarini moliyalashtirish, shuningdek, davlat aktivlarini xorijiy investorlar shaffof sotish jarayonini tezlashtirish diqqat-e'tiborda bo'lishi kutilmoqda. O'zbekiston o'zining 147 mlrd. dollarlik YAIM hamda 42 mlrd.

Toshkent xalqaro moliya markazi rezidentlari uchun 2076-yilgacha, ya'ni yarim asr davomida soliq imtiyozlari hamda preferensiyalar paketi taqdim etiladi. Moliya markazi milliy iqtisodiyotdan ajratilgan alohida “offshor orolcha” sifatida emas, balki mamlakatning umumiy huquqiy tizimiga integratsiyalashtirishda ishlaysi. Bu regulyatorlar o'rtasidagi tarqoqlikni kamaytiradi hamda xorijiy investorlarning mahalliy bozor va loyihalar bilan bevosita hamkorlik qilishini maksimal darajada soddalashtiradi.

Forum dasturi to'rtta asosiy tematik yo'nalish atrofida qurilgan. Bunda investitsiyalar barqarorligi hamda kapitalni himoya qilish mexanizmlari asosiy o'rinda bo'lib, bu yerda global inqirozlar sharoitida aktivlarni sug'urtalash hamda xavfsiz saqlashga qaratiladi. Moliyaviy infratuzilma va kapital bozorlarini rivojlantirish yo'nalishi doirasida O'zbekiston tarixida ilk bor muqobil investitsiya fondlari (xususiy kapital – Private Equity va vechur kapitali – Venture Capital) faoliyatining qonuniy asoslari hamda normativ bazasi taqdim etiladi. Bu startaplar va innovatsion loyihalarga millionlab dollarlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kirib kelishini tezlashtirish



Buyuk Britaniya va Rossiya kabi asosiy hamkorlar bilan bozorga kirish bo'yicha ikki tomonlama muzokaralar yakunlandi hamda a'zolikni shu yil yakunigacha rasmiylashtirish ko'zda tutilmoqda. Bundan tashqari, 2025-yil oktabrda Yevropa Ittifoqi bilan imzolangan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik bitimi (EPCA) hamda 2021-yildan amalda bo'lgan “GSP+” imtiyozli savdo rejimi (6 200 dan ortiq tovar turlari uchun bojisiz kirish) O'zbekistonda ishlab chiqaruvchi xorijiy investorlarga Yevropa bozoriga imtiyozli yo'l ochib bermogda.

Toshkent xalqaro investitsiya forumi yildan-yilga o'z ko'lamini kengaytirib, global brendga aylanib bormogda. O'tgan yilgi tadbirida Bolgariya Prezidenti, Slovakiya Bosh vaziri, Markaziy Osiyo davlatlarining hukumat rahbarlari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Yangi taraqqiyot banki prezidentlari, boshqa nufuzli siyosatchi va moliyachilar ishtirok etgan edi. O'shanda imzolangan investitsiyaviy hamda savdo kelishuvlarining umumiy qiymati 30,5 mlrd. dollarni tashkil qildi.

Bugungi kunda Toshkent forumining muvaffaqiyati shunchaki imzolangan qog'ozlar soni bilan o'lchanmaydi. Investorlarni qayta jalb qilayotgan eng asosiy ko'rsatkich, bu – “konvertatsiya koeffitsiyenti”, ya'ni imzolangan memorandumlarining qancha qismi real hayotda ishlab chiqarish quvvatlari, zavodlar, yangi ish o'rinlari va infratuzilmaga aylangan bilan bog'liq. O'zbekiston bu borada shaffof tizimni yo'lga qo'ya oldi, desak, ayni haqiqat.

Forumda asosiy urg'u nimalarga qaratiladi?

Nufuzli forum doirasida qator strategik sohalarga asosiy urg'u beriladi. Birinchidan, “yashil” energetika hamda qayta tiklanuvchi manbalarga e'tiborni kuchaytirish, Saudiya Arabistonining “ACWA Power”, BAAning “Masdar” kabi gigantlari bilan boshlangan loyihalarni yangi bosqichga olib

“O'zbekiston o'zining 147 mlrd. dollarlik YAIM hamda 42 mlrd. dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari hajmi bilan bugun xorijiy sheriklarga asosiy narsa – iqtisodiy barqarorlik, kafolat va istiqbolli kelajakni taklif qilmoqda. Uch kunlik muzokaralar ushbu zafarli yo'lning yangi sahifasini ochib berishi, shubhasiz.”

dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari hajmi bilan bugun xorijiy sheriklarga asosiy narsa – iqtisodiy barqarorlik, kafolat va istiqbolli kelajakni taklif qilmoqda. Uch kunlik muzokaralar ushbu zafarli yo'lning yangi sahifasini ochib berishi, shubhasiz. Bu yilgi forumning mutlaq markaziy voqeasi shu yilning mart oyida Prezidentimiz farmoni bilan tashkil etilgan “Toshkent xalqaro moliya markazi” taqdimoti bo'ladi. Ushbu tashabbus xalqaro investorlar uchun tanish hamda xavfsiz bo'lgan ingliz umumiy huquqi (Common Law) mayoylariga asoslangan mutlaqo yangi institutsional va huquqiy arxitektura.

Jahondagi yetakchi moliyaviy xablar (London, Dubai, Singapur) tajribasi shuni ko'rsatadiki, yirik kapital egalari uchun davlatning iqtisodiy o'sish sur'atlaridan ko'ra huquqiy tizimning shaffofligi hamda bashorat qilinishi (prognozga egaligi) muhimroq. Toshkent xalqaro moliya markazi aynan mana shu ehtiyoj yo'lida paydo bo'ldi.

Markazning o'ziga xos strategik ustuvorliklari mavjud. Xususan, markazda nizolar va bitimlar xalqaro miqyosda tan olingan ingliz huquqi normalari asosida tartibga solinadi. Moliyaviy xizmatlarni nazorat qiluvchi alohida ixtisoslashtirilgan regulyator hamda Toshkent xalqaro arbitraj markazi faoliyat yuritadi.

Moliya markazi taqdimoti doirasida “BlackRock”, Qatar moliya markazi (QFC) va “Franklin Templeton” kabi global institutsional investorlar ishtirokidagi maxsus panel global raqobatbardosh moliya markazining mezonlarini muhokama qiladi.

imkonini beradi. Qolaversa, yana bir muhim jihat – savdo aloqalari hamda logistika yo'laklari yo'nalishi bo'lib, Markaziy Osiyoni Yevropa bilan bog'lovchi “O'rta yo'lak” va Transkaspik logistikasi istiqbolli muhokama qilinadi. “Yashil” energetikaga o'tish va iqlimni moliyalashtirish yo'nalishida mintaqadagi yirik “yashil” loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari tahlil etiladi.

Forum doirasida Britaniya elchixonasi, Britaniya – O'zbekiston yuridik assotsiatsiyasi hamda Toshkent xalqaro arbitraj markazi hamkorligida maxsus huquqiy-trek tashkil etiladi. Unda O'zbekistonning investitsiyalarni himoyalash bo'yicha global arxitektura o'rni, jumladan, investor va davlat o'rtasidagi nizolarni hal qilish tizimi, ikki tomonlama investitsiya shartnomalari islohoti hamda Nyu-York konvensiyasining ijro etilishi ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion nizolarning oldini olish protokoli (Dispute Avoidance Protocol – DAP) taqdimoti bo'lib o'tadi. Bu protokol investitsiyaviy nizolarni sud yoki arbitraj darajasiga yetkazmasdan, dastlabki

Umuman olganda, uch kunlik uchrashuvlar natijasida o'n milliardlab dollarlik yangi investitsiya bitimlari imzolinishi kutilmoqda. Forum mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro moliya institutlari hamda yirik kompaniyalar bilan hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ham ochadi.

Iskandar YULDASHEV,
Toshkent xalqaro universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

BM'Tning Nyu-York va Jenevadagi tuzilmalari hamda UNESCOning Parijdagi qarorgohida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy va Imom Termiziy ilmiy merosiga bag'ishlangan maxsus taqdimotlar o'tkazish ko'zda tutilmoqda.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mualfiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbachi muharrir R. Bobojonov.

Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.46 Topshirildi – 00.10

1 2 3 4 5 6